

## DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI FANI HOZIRGI KUNDAGI ZAMONAVIY YOSHLARNING MA'NAVIY KAMOLOTGA ELTUVCHI FAN SIFATIDA

*Farg'ona ICHSHUI kasb-hunar maktabi*  
*Umumta'lim fani o'qituvchisi*  
**Axmedov Bobur**

**Annotatsiya:** *Davlat va huquq asoslari fani– hozirgi kundagi zamonaviy yoshlarning ma'naviy kamolotga eltuvchi fan sifati xaqida ma'lumotlar berilgan .*

**Kalit so'zlar:** *Davlat va huquq asoslari, ong, huquq, madaniyat, tarbiya, qonun, yoshlar, bola huquqlari, jamiyat, manaviyat, huquqiy hujjat, mas'uliyat.*

Davlat va huquq asoslari fani- huquqiy masalalar, atamalarning izohi, tarixdan lavhalar aynan huquqiy ta'lim sohasidagi bilimlaringizni yanada boyitishga, huquqiy ong va tafakkuringizni kengaytirishga xizmat qilishga yo'naltirilgan.

Davlat va huquq asoslari – huquqi ijtimoiy normalarning alohida tizimi sifatida, huquqning alohida tarmoqlarini, davlat va huquq tarixini, davlat va umuman siyosiy tizimning faoliyatini o'rganuvchi fan.

Davlat va huquq asoslari fanining ma'naviy kamolotga eltuvchi sifatiga ega bo'lishi juda muhimdir. Zamonaviy yoshlar uchun Davlat va huquq asoslari fanining ma'naviy kamolotga eltuvchi sifati, ularning inson huquqlari bilan bog'liq ma'lumotlarga, qonunlarga, adolatga, demokratiyaga, ijtimoiy huquqlarga va huquqiy muammolarga oid ma'lumotlar bilan ta'minlashga yo'l ochadi.

Bu fan, zamonaviy yoshlarga quyidagi ma'naviy kamolotlarni ta'minlaydi:

Davlat va huquq asoslari fani, zamonaviy yoshlarga o'z huquqlari va majburiyatlari haqida ma'lumot bermaydi, balki ularni o'z huquqlarini tushunish, qadrlash va muhofaza qilishga o'rgatadi. Bu ularning jamiyatdagi o'rinini tushunish, o'zini ifodalanish, huquqiy muammolarni tushunish, o'z fikrini bildirish va huquqiy qo'llab-quvvatlash tizimida ishtirok etish bilan bog'liqdir.

Davlat va huquq asoslari fanining ma'naviy kamolotga eltuvchi sifati zamonaviy yoshlarni adolat va demokratiya tamoyillari bilan tanishtiradi. Ular adolat tizimining qanday ishlashini, shaxsiy adolat, qonunlarni tartibga solish, qonuniy jarayonlarga ishtirok etish va demokratik tizimning qanday ishlashini tushunishadi.

Ushbu fan yoshlarga o'z ma'naviy va ijtimoiy huquqlarini tushunishga imkon beradi. Ular shu bilan birga, odam huquqlarini, erk va erkinlikni, xalqaro inson huquqlarini, etnik va dini azolarning huquqlarini tushunishadi. Davlat va huquq asoslari fani, zamonaviy yoshlarga huquqiy muammolar va ularning yechimlari haqida ma'lumot beradi. Bu ularning huquqiy muammolarni tushunish, huquqiy maslahatlarga murojaat qilish, huquqiy himoyaga ega bo'lish, yuridik jarayonlarga ishtirok etish va o'z huquqlarini muhofaza qilish bilan bog'liqdir.

Davlat va huquq asoslari fani zamonaviy yoshlarda adolat, huquqiy muammolar, demokratiya va ijtimoiy huquqlar bilan bog'liq savollar haqida tushuncha beradi. Ular bu fan orqali o'zlarini huquqiy bilimlar, adolat tizimi, demokratiya tamoyillari va inson huquqlari

sohasida rivojlantirishlari mumkin. Bu esa ularning o‘z insoniyatlarini tushunish, ijtimoiy faollikda ishtirok etish va huquqiy muammo va maslahatlarni hal qilishga qodir bo‘lishingizga olib keladi.

Xozirgi kunda O‘zbekistonda 18 yoshga to‘lmagan yoshlar 12 million nafardan ziyodni tashkil etadi. 2022-yil 1-yanvar holatiga O‘zbekistonda 14–30 yoshdagi jami doimiy aholi soni 9 million 685 ming 564 nafarni tashkil etgan.

- O‘g‘il bolalar – 4 954 910 nafar;
- Qiz bolalar – 4 730 654 nafarni tashkil etadi.

2023-yil 1-yanvar holatiga Respublika bo‘yicha yoshlar (14-30 yosh) soni 9 654 351 kishi tashkil etib, jami aholining 26,8 foiziga teng.

Ularning huquqlarini himoya qilish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 22 apreldagi – “Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi va yangi tashabbuslarni olg‘a surdi. Avvalo bu huquqiy hujjat ta‘lim muassasalariga mas‘uliyatli vazifalarni yuklaydi [1;84].

O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil 14 sentabrdagi - “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida” gi O‘RQ-406-sonli qonuni yoshlar hayotida yangi sahifalarni ochib berdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning har bir ma‘ruzalari va aholi bilan uchrashuvlarida yoshlarning huquqiy ta‘lim-tarbiyasi yuzasidan zarur tavsiyalarni berib kelmoqda. Davlatimiz rahbarining - Bosh Qonunimizni chuqur o‘rganish, anglash, hayotga joriy etish va unga so‘zsiz amal qilish – barchamizning sharaflı burchimizdir, degan fikrlari yoo‘shlarni huquq-erkinliklarini o‘rganishlari uchun keng yo‘l ochib berdi. Konstitutsiya va qonunlarimiz haqiqatan ham qudratli kuchga ega huquqiy davlat va adolatli jamiyatni barpo etish uchun fuqarolarning huquqiy madaniyatini shakllantirish suv va xavodek zarur.

Yurtboshimizning Oliy Majlisga Murojaatnomasida: oldimizga qo‘yilgan ulkan vazifalarni amalga oshirishda biz uchun kuch-qudrat manbai bo‘ladigan milliy g‘oyani rivojlantirishimiz zarur, degan so‘zlari bugungi tahlikali zamonda nihoyatda zarur va hayotiy haqiqatdir. Milliy g‘oya, avvalo, har bir oilada tarkib topadi. Farzandlariga to‘g‘ri yurib, to‘g‘ri turishni o‘rgatish huquqiy tarbiya bilan singdiriladi.

Huquqiy tarbiyaning samaradorligi ko‘p jihatdan ta‘lim muassasalaridagi huquqiy bilimning chuqur o‘rgatilishiga bog‘liq.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 avgustdagi –“Yoshlarni ma‘naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta‘lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3907-sonli qarori ham yoshlar uchun keng imkoniyatlarni ochib berdi. Bunda yoshlar ma‘naviy-axloqiy va jismoniy barkamol bo‘lib ulg‘aymoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 yanvardagi – “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-5618-sonli Farmoni [2; 253-b]. Xa Konstitutsiyamiz asosida yaratilgan yangi qonunlarimiz, me‘yoriy-huquqiy hujjatlar yuzasidan bilimlarni oshirishga harakat qilish imkonini beradi. Huquqiy bilimlar asosi, poydevori qanchalik mustahkam bo‘lsa, uning natijaviyligi shunchalik samarali bo‘ladi. Yoshlar o‘z huquqiy bilimlarini oshirishda davlat qonunlari bilan cheklanib qolmasdan mustaqil ravishda kitoblar, qo‘llanmalar, risolalar, gazeta-jurnallar o‘qish hamda

radio, tele-xabarlar, internet ma'lumotlari orqali o'z bilimlarini oshirib borishi talab qilinadi. Bugungi kun intellektual yoshlari zamondan orqada qolishlari mumkin emas. Davlatimizda har bir yosh kuchli huquqiy bilim egasi bo'lishi shart. Yoshlarni to'g'ri yo'lga boshlashi, ularni adashib huquqbuzarlik sodir etishdan saqlash, jinoyatchi bo'lib qolmasligini oldini olish uchun qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilgan. Masalan muhtaram Prezidentimiz 2019 yilning 19 mart kuni bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishida yoshlarga e'tiborni kuchaytirish masalalari bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surdi.

Bu vazifalar ta'lim muassasalariga katta mas'uliyat yuklaydi. Har bir yosh, inson sifatida maktabdagi o'qish yillarida shakllanadi. Yoshlar qanchalik ma'naviy barkamol bo'lsa, turli yot illatlarga qarshi immuniteti ham shunchalik kuchli bo'ladi. Bu masalalarning boshida Konstitutsiya, qonunlar turadi.

Vatanimizning ertanggi kuni, rivojlanishi va olib borilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan xalqimizning huquqiy savodxonligi va huquqiy madaniyati darajasiga bog'liq. Ma'lumki, mustaqillik yillarida mamlakatimizda yoshlarga ta'lim-tarbiya berish, har tomonlama yetuk shaxsni voyaga yetkazish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Voyaga yetmaganlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ular orasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning oldini olish hamda yoshlarning huquqiy ongi va madaniyati darajasini oshirish borasida keng qamrovli ishlar olib borilmoqda.

Xulosa o'rnida prezident Sh.Mirziyoevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida - Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur, sharoitlar yaratish, zo'ravonlik g'oyasi —virusi tarqalishining oldini olishdir. Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim, deb hisoblaymiz degan fikrini keltirib, yoshlarning Vatan oila oldidagi burchlarini sadoqat bilan bajarishlari lozimligini eslatib o'tamiz.

Bugungi yoshlar ilm-fan va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda asosiy va hal qiluvchi qatlamga aylanishi zarur. Bu maqsadlarga erishishni yoshlarni yuksak ma'naviy salohiyati va ilm-fanni egallashga bo'lgan intilishi va vatanparvarlik tuyg'ularining yuqori bo'lishisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shuning uchun yoshlarga yangicha yondashish va yangi texnologiyalarni qo'llash masalasi nafaqat bugungi kun bilan kelajakda ham eng istiqbolli vazifalardan biri bo'lib qoladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1.Saidov.A. —Bolalar huquqlari: Uni to'laqonli ta'minlash jamiyat manfaatlariga xizmat qiladi.Xalq so'zi, 2019 yil 25 aprel. 84-son.

2. Sh.M.Mirziyoev. Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir. Xalq so'zi, 2018 yil 8 dekabr. 253-son

3.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2017 yil 19 sentyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqi.

4. N.Ismatova, O.Karimova. Davlat va huquq asoslari. O'rta ta'lim muassasalarining 11-sinfi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun darslik. Toshkent «Yangiyul Poligraph Service» 2018
5. Hamidullo o'g'li, T. H. (2023). RAQAMLI TEXNOLOGIYALARI DAVRIDA CHATGPT VA HOZIRGI KUNDAGI O'RNI. Scientific Impulse, 2(16), 320-325.
6. Isa o'g'li, X. A. (2023). O 'ZBEK TERMINOLOGIYASIDA SOHA TERMINLARINING O 'RGANILISHI. THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY, 2(16), 118-120..
7. Xasanov, A. (2023). ETYMOLOGICAL ANALYSIS OF SPECIAL TERMS. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ЯЗЫКА, ОБРАЗОВАНИЯ, ПЕРЕВОДА, 4(3).
8. ўғли Ҳасанов, А. И. (2023, January). С. АЙНИЙНИНГ “СУДХЎРНИНГ ЎЛИМИ” ҚИССАСИДА ҚЎЛЛАНГАН АРАБЧА ТЕРМИНЛАРНИНГ СЕМАНТИК-СТРУКТУР ТАҲЛИЛИ. In INTERNATIONAL CONFERENCES (Vol. 1, No. 2, pp. 32-37)..
9. Hasanov, A. (2023). STUDY OF FIELD TERMS IN WORLD TERMINOLOGY. Science and innovation, 2(C12), 151-155..
10. Isaevich, H. A. (2022). STUDYING THE NOTION OF TERM IN THE UZBEK AND WORLD LINGUISTICS. British View, 7(4)..
11. Hasanov, A. I. (2022). ANALYSIS OF ECONOMIC AND BANKING TERMS USED IN THE EPIC " DEATH OF A USURER". МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ЯЗЫКА, ОБРАЗОВАНИЯ, ПЕРЕВОДА, 3(3).
12. Isa o'g'li, H. A. (2022). SADRIDDIN AYNIYNING “SUDXO'RNING O'LIMI” ASARIDA QO'LLANGAN IJTIMOIIY TERMINLARNING SEMANTIK TAHLILI. FAN, TA'LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI, 3(8), 5-9.
13. Ahmad, X. (2022). SADRIDDIN AYNIYNING “SUDXO'RNING O'LIMI” ASARIDA QO'LLANGAN DAVLAT BOSHQARUVI TIZIMIGA OID TERMINLARNING PRAGMATIK TAHLILI. Science and innovation, 1(Special Issue 2), 574-576.
14. Ahmad, H. (2022). XARAKTERNI TASVIRLASHDA DIOLOG VA MONOLOG. FAN, TA'LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI, 858-861.
15. Isa o'g'li, X. A. (2021). RUHIYAT TASVIRIDA PEYZAJNING O'RNI. FAN, TA'LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI, 2(5), 98-105..
16. Xolboboyevich, X. J. (2022). Using Innovation and Technology to Accelerate Progress in Education. American Journal of Social and Humanitarian Research, 3(10), 113-116.
17. Hayitov, J. (2022). TEXNOLOGIYA FANI O'QITUVCHILARIDA KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRISHNING BA'ZI JIHATLARI. Физико-технологического образование, (3).
18. Hayitov, J. (2022). BO'LAJAK TEXNOLOGIYA FANI O'QITUVCHILARINI KREATIVLIGINI SHAKLLANTIRISH TEXNALOGIYASI. Физико-технологического образование, (3).
19. Xolboboyevich, H. J. (2022). Future Technology Creativity of Teachers Some Aspects of Development. Eurasian Journal of Engineering and Technology, 4, 55-58.

20. KHOLBOVOYEVICH, N. J. (2022, February). SCIENTIFIC AND THEORETICAL FUNDAMENTALS OF DEVELOPING THE CREATIVE QUALITIES OF TEACHERS OF FUTURE TECHNOLOGY. In Next Scientists Conferences (pp. 71-75).

21. Xayitov, J. (2023). TALABALARDA KREATIVLIK SIFATLARNING RIVOJLANGANLIK DARAJASINI TASHXISLOVCHI METODLAR. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(1 Part 2), 147-153.

22. Хўжаназаров, Ў. Э., Рўзимова, Х. К., Есимбетов, Р. М., Алламуратов, Б. Д., Бобокелдиева, Л. А., Наралиева, Н. М., & Халқузиёва, М. А. (2022). Қашқадарё ҳавзасининг тоғолди яйловлари мониторинги ва экологик оптималлаштириш. Образование, 8(9), 10.

23. Хужаназаров, У. Э., Рузимова, Х. К., Есимбетов, Р. М., Алламуратов, Б. Д., Бобокелдиева, Л. А., Наралиева, Н. М., & Халқузиёва, М. А. (2022). ашқадарё ҳдвзасининг тоғолди яйловлари мониторинги ва экологик оптималлаштириш. Образование, 8(9), 10.

24. Есимбетов, Р., & Матрасулов, Г. (2022). РЕПРОДУКТИВНАЯ ДИНАМИКА БОЛЬШОЙ ПЕСЧАНКИ (RHOMBOMYS OPIMUS L.) В НУКУССКИХ ПЕСКАХ ПУСТЫНИ КЫЗЫЛКУМ. In НАУКА И ПРОСВЕЩЕНИЕ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, ДОСТИЖЕНИЯ И ИННОВАЦИИ (pp. 14-16).

25. Yesimbetov, R. M., Asenov, G. A., Allamuratov, B. D., & Matrasulov, G. J. (2020). Long-term Dynamics of the Midday Gerbil (*Meriones meridianus* Pall) Population in the Portion of the Kyzylkum Desert in the Nukus Area. International Journal of Scientific and Technology Research, 9(3), 6213-6216.

26. Есимбетов, Р. М., & Асенов, Г. КАТТА ҚУМ СИЧҚОНИ (XENOPSYLLA NIRTIPES) БУРГАСИНИНГ МОНИТОРИНГ КУЗАТИШ ФЕНОЛОГИЯСИ. МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО И СРЕДНЕГО СПЕЦИАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН КАРАКАЛПАКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ БЕРДАХА ФАКУЛЬТЕТ БИОЛОГИИ, 31.

27. Есимбетов, Р. М., & Асенов, Г. ҚИЗИЛҚУМНИНГ НУКУС ҚУМИ ҲУДУДИДА ТУШКИ ҚУМСИЧҚОНИ (*MERIONES MERIDIANUS*) НИНГ ТАРҚАЛИШИ ВА СОН ДИНАМИКАСИ. МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО И СРЕДНЕГО СПЕЦИАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН КАРАКАЛПАКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ БЕРДАХА ФАКУЛЬТЕТ БИОЛОГИИ, 29.

28. Hamidullo o'g'li, T. N. (2022). HOZIRGI KUNNING DOLZARB IMKONIYATLARI. JAWS VA NVDA DASTURLARI. Scientific Impulse, 1(2), 535-537.

29. O'zbekistonda yoshlar soni qancha? — Uzbekistan News | DARYO.UZ

30. Mamlakatimizda yoshlar soni qancha? - Xalq so'zi (xs.uz)